ITALIYA RESPUBLIKASI HUKUMATI BILAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUKUMATI O‘RTASIDA 2024-2026 YILLARGA MO‘LJALLANGAN MADANIY HAMKORLIK DASTURI

Italiya Respublikasi Hukumati va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, keyingi o‘rinlarda “Tomonlar” deb ataluvchilar, sohada o‘zaro almashinuvni rivojlantirish maqsadida 1997 yil 3 mayda imzolangan Madaniy hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo Bitimga muvofiq madaniyat, fan va ta’lim, shuningdek, mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlash bo‘yicha navbatdagi 2024-2026 yillarga mo‘ljallangan Madaniy hamkorlik dasturini kelishib oldilar.

1. TA’LIM

1.1. Universitet ta’limi

1.1.1. Tomonlar universitetlar va boshqa oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni quyidagi yo‘llar bilan qo‘llab-quvvatlaydilar:

hamkorlik bo‘yicha hujjatlar (memorandumlar va bitimlar) tuzish;

o‘qituvchilar, axborot va statistik ma’lumotlar almashinuvi;

Italiya universitetlari rektorlari assotsiatsiyasi (CRUI) va O‘zbekiston Respublikasining shu kabi instituti o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik;

qo‘shma ilmiy loyihalar, seminarlar va konferentsiyalar o‘tkazish.

1.1.2. Tomonlar har yili aloqalarni o‘rnatish, har ikki Tomonning manfaatlariga javob beradigan ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlash, shuningdek universitetlar yoki boshqa oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida 8 kungacha bo‘lgan muddatga uchta universitet professori va/yoki izlanuvchilarning tashriflarini almashadilar.

1.1.3. Italiya Tomonining ma’lum qilishicha, oliy ta’lim san’at, musiqa va xoreografiya yo‘nalishlari bo‘yicha universitet ta’limiga tenglashtirilgan ta’limni o‘z ichiga oladi. Bunday ta’limni davlat muassasalarida ham xususiy muassasalarda ham olish mumkin.

San’at, musiqa va xoreografiya sohasidagi oliy ta’lim muassasalari Italiya Universitetlar va tadqiqot vazirligining veb-saytida keltirilgan: https://www.mur.gov.it/it/aree-tematiche/afam/gli-isttituti

1.1.4. Italiya Tomoni san’at, musiqa va xoreografiya sohasida ta’lim doirasida umumiy dastur va loyihalarni amalga oshirish maqsadida ikki davlatning vakolatli muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga umid bildiradi.

1.1.5. Tomonlar oliy ta'lim muassasalari o'rtasida, shuningdek, Yevropa Ittifoqi dasturlari doirasidagi hamkorlikka ko'maklashadilar.

1.2. Til o'rgatish

1.2.1. Tomonlar Italiyada o'zbek tilini o'qitish bo'limlari mavjud emasligini, O'zbekistonda esa bitta kafedra faoliyat yuritayotganini ta'kidlamoqda. Italiya Tomoni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida Italiya tili va madaniyati kafedrasini moliyalashtirishni davom ettirish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

1.2.2. Italiya Tomoni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida italyan tili va madaniyati kafedrasini moliyalashtirish, shuningdek, mahalliy o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini, shu jumladan masofaviy ta'lim shaklida o'tkazish uchun mablag' ajratish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

1.2.3. Italiya Tomoni (Tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vazirligi, Jamoat va madaniy diplomatiya bosh boshqarmasi) budjet mablag'lariga muvofiq italyan tili va madaniyatini o'qitish, malaka oshirish uchun o'quv-uslubiy materiallar xarid qilish, shu jumladan mahalliy o'qituvchilar uchun masofaviy kurslar tashkil etish uchun mablag' ajratish imkoniyatlarini tahlil qiladi.

1.2.4. Tomonlar har ikki davlatda tegishli tillar va madaniyatlarni rivojlantirishga harakat qiladilar.

1.3. Ta'lim hujjatlari

1.3.1. Tomonlar vaqti-vaqti bilan hujjatlar almashinuvi yo'li bilan ikkala davlatning vakolatli organlari tomonidan o'tkaziladigan tegishli sertifikatlar va ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni to'g'ri qiyosiy baholashni amalga oshirish maqsadida universitet ta'lim tizimlari, shuningdek, ularning rivojlanishi haqidagi bilimlarni o'zaro yangilaydilar.

2. O'QUV GRANTLARI

2.1. O'zbekiston fuqarolari – talabalar va izlanuvchilar Italiya Respublikasining yillik ta'lim grantlarini taqdim etish bo'yicha mamlakatning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ajratiladigan tanlovlarda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi. O'quv grantlari asosida o'qish oylari soni yildan yilga o'zgarib turadi va Italiya Respublikasi Tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vazirligining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

2.2. O'zbekiston Tomoni Italiya fuqarolariga O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari negizida o'zbek tili va adabiyoti yoki ta'lim va fanning Italiya Tomonini qiziqtirgan boshqa yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli ta'lim amaliyotini o'tash imkoniyatini yaratadi. Ta'lim grantlari asosida o'qish oylari soni Tomonlar o'rtasidagi maxsus kelishuvga qarab yildan-yilga o'zgarib turadi.

3.MADANIYAT VA SAN'AT

3.1. Madaniy faoliyat va san'at

3.1.1. Tomonlar madaniyat, san'at va sport sohalarida o'tkaziladigan festivallar, ko'rik-tanlovlar va xalqaro tanlovlar, shuningdek, har ikki davlat tomonidan o'tkaziladigan boshqa shu kabi tashabbuslar haqida ma'lumot almashadilar. Tomonlar, shuningdek, yuqoridagi tadbirlarda ikki mamlakat san'at va madaniyat namoyandalarining o'zaro ishtirokini ta'minlaydi.

Tomonlar ularning boy madaniy an'analari va urf-odatlarini kengroq yoritish va tanishtirish maqsadida 2024-yilda Italiya Respublikasida "O'zbekiston madaniyati va san'ati kunlari"ni hamda paritet asosda 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida "Italiya madaniyati va san'ati kunlarini" o'tkazish imkoniyatlarini ko'rib chiqadilar.

3.1.2. Tomonlar turli soha mutaxassislari almashinuvi orqali Madaniyat va tasviriy san'atni targ'ib qilish, shuningdek, u bilan bog'liq ijodiy va madaniy sohalarni rivojlantirishga hissa qo'shadilar.

3.2. Ko'rgazmalar

3.2.1. Mazkur Dasturning amal qilish muddati doirasida Tomonlar rasm, amaliy san'at, fotografiya va dizayn bo'yicha ko'rgazmalarni tashkil etishga hissa qo'shadilar. Ko'rgazmalar bo'yicha takliflar va ularning mavzulari tomonlar tarafidan diplomatik kanallar orqali kelishib olinadi.

3.3. Teatr, musiqa, raqs

3.3.1. Tomonlar iste'dodli guruhlar yoki alohida san'atkorlarning turli chiqishlari va gastrollarini rag'batlantiradilar, shuningdek, har ikki davlat madaniyati bilan bog'liq uyushmalar va muassasalar o'rtasidagi hamkorlik va almashinuvni qo'llab-quvvatlaydilar.

Tomonlar ikki mamlakat oliy san'at ta'limining tegishli kurslari o'qituvchilarini, shuningdek, san'atning taniqli vakillarini jalb etgan holda aktyorlik, rejissyorlik, dramaturgiya, teatr boshqaruvi va boshqa teatr faoliyati bo'yicha spektakllar, ijodiy dasturlar, mahorat darslari va darslar o'tkazishga ko'maklashadilar.

3.4. Kino

3.4.1. Tomonlar har ikki davlat kinematografiyasini rivojlantirish maqsadida kinematografiya sohasida faoliyat yurituvchi davlat tashkilotlari, muassasalari va birlashmalari o'rtasidagi hamkorlikka ko'maklashadilar. Bu hamkorlik san'atkorlar almashinuvini, xalqaro ahamiyatga molik festivallar, simpoziumlar, ko'rgazmalar va boshqa barcha turdagi madaniy tadbirlarda o'zaro ishtirok etishni nazarda tutadi. Tomonlar, shuningdek, filmlarni targ'ib qilish, tarqatish va birgalikda ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishda ko'mak beradi.

4. MADANIY MEROSNI RESTAVRATSIYA, KONSERVATSIYA, MUHOFAZA QILISH VA ARXEOLOGIYA SOHALARIDA HAMKORLIK.

4.1. Mazkur Dasturning amal qilish muddati davomida Tomonlar tegishli vakolatli organlar tomonidan madaniy merosni muhofaza qilish, asrab-avaylash va qadrini oshirish sohasida, shuningdek, arxeologiya va muzeyshunoslik sohasida hamkorlik qilish, me'morchilik va zamonaviy san'atni rivojlantirishga ko'maklashadilar.

Madaniy meros doirasida ta'lim, kadrlar tayyorlash va amaliy tadqiqotlar sohasida Tomonlar o'quv kunlari, seminarlar, konferensiyalar, shuningdek, UNESCOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan obyektlarda qo'shma tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan axborot, tajriba va ilg'or tajriba almashishga ko'maklashadilar.

Italiya Tomoni mazkur Dasturni amalga oshirish davrida, muayyan amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar tuzilgan taqdirda, restavratsiya sohasida mutaxassislarni yuborishga, shuningdek, Italiya Madaniyat vazirligining Ta'lim Bosh boshqarmasiga, tadqiqot va madaniyat institutlariga tegishli markaziy restavratsiya muassasalari bilan kelishilgan holda ushbu sohada o'quv mashqlarini o'tkazishga tayyorligini bildiradi.

4.2. Tomonlarning arxeologik missiyalari birgalikda tadqiqot olib borish huquqiga ega.

Tomonlar har ikki davlatda amalda bo'lgan qonunlar va qoidalarga muvofiq, Tomonlar hududida faoliyat yurituvchi arxeologik missiyalar faoliyatini qo'llab-quvvatlaydilar.

4.3. Tomonlar har ikki davlat muzeylari o'rtasidagi hamkorlikni, xususan, muzeylar faoliyati va rivojlanishining ilmiy-texnikaviy mezonlari va standartlari bo'yicha o'zaro munosabatlar tamoyillariga asoslangan hamkorlikni rivojlantirishga ko'maklashadilar. Shu munosabat bilan ushbu sohada mutaxassislarni kelgusida malakasini oshirish maqsadida almashinuv amalga oshiriladi. Tegishli tafsilotlar, jumladan, moliyaviy masalalar diplomatik kanallar orqali tasdiqlanadi.

4.4. Tomonlar o'zlarining milliy qonunchiligiga muvofiq hamda 1970-yildagi UNESCOning Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib kelish, olib ketish va ularga bo'lgan egalik huquqini o'zgaga berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi xalqaro konvensiyasidan kelib chiqadigan majburiyatlarni hisobga olgan holda va O'g'irlangan yoki noqonuniy olib chiqilgan madaniy boyliklar to'g'risidagi 1995 yilgi UNIDROIT konvensiyasi tamoyillarini inobatga olgan holda madaniy boyliklarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda hamkorlik qiladilar.

Tomonlar, shuningdek, suv osti arxeologiyasi sohasidagi qonun hujjatlariga muvofiq va UNESCOning 2001-yildagi Suv osti madaniy merosini

muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasi tamoyillarini hisobga olgan holda suv osti madaniy merosini muhofaza qilish sohasida hamkorlik qiladilar.

4.5. Tomonlar UNESCOning 1972-yildagi Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to‘g‘risida va 2003-yildagi Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyalarida yuklangan majburiyatlarni bajarish bo‘yicha hamkorlikka alohida e’tibor qaratadilar. Tomonlar, shuningdek, UNESCOning 2005-yilgi Madaniy ifodalarning turli xil shakllarini muhofaza qilish va qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi Konvensiya bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda hamkorlik qiladilar.

5. ARXIVLAR, KUTUBXONALAR VA NASHR QILISH

5.1. Arxivlar

5.1.1. Tomonlar har yili o‘z davlatlarining milliy qonunchiligiga muvofiq ilmiy nashrlar, hujjatlar nusxalari, ma’lumotlar bazalari va me’yoriy hujjatlarni almashish orqali tegishli arxiv bo‘limlarining hamkorligiga ko‘maklashadilar.

5.1.2. Tomonlar o‘qish yoki tadqiqot o‘tkazish, shuningdek, tegishli arxiv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ma’lumotlarni olish uchun 10 kundan ortiq bo‘lmagan muddatga arxiv ishi sohasidagi ikki mutaxassisning tashriflarini o‘zaro kelishuv asosida almashadilar. Tomonlar arxiv hujjatlarini raqamlashtirish, shuningdek, ushbu hujjatlarni saqlash bo‘yicha elektron ma’lumotlar bazalarini yaratish, arxiv ishi sohasiga axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etish, restavratsiya ishlarini olib borish va arxiv hujjatlarining zaxira nusxalarini yaratish bo‘yicha tajriba almashadi.

5.1.3. Tomonlar davlat arxividagi ariza beruvchilarga arxiv hujjatlarini bepul taqdim etadilar. Shu munosabat bilan, Italiya Tomoni o‘quv maqsadlarida arxivda saqlanayotgan hujjatlar bo‘yicha maslahat berish bepul amalga oshirilishini ma’lum qiladi.

5.2. Kutubxonalar

5.2.1. Tomonlar ushbu Dasturni amalga oshirish davrida ikki davlat kutubxonalari o‘rtasidagi hamkorlikning quyidagi turlarini qo‘llab-quvvatlaydilar:

ikki davlat kutubxonalari, akademiyalari va madaniyat muassasalari o‘rtasida kitoblar, nashrlar va gazetalar almashinuvi;

Tomonlar davlatlarining milliy qonunchiligi doirasida turli ko‘rgazmalar tashkil etish maqsadida davlat kutubxonalariga tegishli bo‘lgan nodir va qimmatbaho materiallarni qarzga olishga ruxsatnomalar berish;

ixtisoslashtirilgan kutubxona xodimlarini bir haftadan ko‘p bo‘lmagan o‘quv safari orqali almashish;

Tomonlar davlatlarining milliy qonunchiligi doirasida Davlat kutubxonalarida saqlanadigan kitob materiallari nusxalari yoki mikrofilmlari bilan almashish.

5.2.2. Italiya Tomoni kutubxona iqtisodiyoti, konservatsiya va restavratsiya, kataloglashtirish va informatika sohalaridagi mutaxassislarni yuborishga tayyorligini bildiradi. Mutaxassislarning xizmat safari xarajatlarini taklif qiluvchi Tomon o‘z zimmasiga oladi. Ushbu masalaga oid tafsilotlar har ikki Tomonning diplomatik kanallari orqali kelishiladi.

Markaziy arxivlar va kitoblar patologiyasi instituti (ICPAL) arxiv va kitob merosini saqlash va restavratsiya qilish bo‘yicha o‘z mutaxassislarini kitob merosini asrab-avaylash va saqlash bo‘yicha o‘quv ko‘rgazmalarini tashkil etishga ko‘maklashish hamda ularning ushbu sohadagi ilmiy nashrlar almashinuvini rag‘batlantirish uchun yuborishni ko‘zda tutadi.

5.3. Nashriyot

5.3.1. Tomonlar ikki davlat adabiyoti, ilm-fani va san’atini chuqurroq o‘rganishga xizmat qiluvchi yuksak badiiy qimmatga ega bo‘lgan mumtoz va zamonaviy asarlarni tarjima qilish va nashr etishga ko‘maklashadilar.

5.3.2. Italiya Tomoni italyan tilidagi asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilish uchun grantlar va to‘lovlar taqdim etishini ma’lum qiladi:

Italiya Tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vazirligi (Jamoat va madaniy diplomatiya bosh boshqarmasi) adabiy yoki ilmiy asarlarni tarjima qilish, shuningdek qisqa metrajli va badiiy filmlarni tarjima qilish, takrorlash va subtitrlash orqali italyan madaniyatini yoyishga qaratilgan loyihalar uchun italyan yoki chet el nashriyotlari yoki tarjimonlariga bonuslar va moliyaviy to‘lovlarni taqdim etadi.

Italiya Madaniyat vazirligi Italiya Respublikasi Prezidentining Oliy homiyligi ostida italyan yoki chet ellik tarjimon va nashriyotchilarga “Milliy mukofot”ni topshiradi.

6. TELERADIO SOHASIDA HAMKORLIK VA AXBOROT

Tomonlar tegishli manfaatdor organlar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bitimlar tuzishga ko‘maklashuvchi, shuningdek, har ikki davlatdagi voqelikni yaxshiroq tushunishni rag‘batlantirish maqsadida radio va televideniya eshittirishlari sohasida o‘zaro almashuvga ko‘maklashadilar.

7. YOSHLAR VA SPORT VAKILLARI BILAN ALMASHISH

7.1. Tomonlar ikki mamlakat davlat institutlari tomonidan taklif etilgan qo‘shma tashabbuslarni amalga oshirish orqali yoshlar almashinuvi hamkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

7.2. Tomonlar o‘z vakillarining ikki davlatdan birining hududida o‘tkaziladigan sport musobaqalari, o‘yinlari va boshqa xalqaro sport tadbirlarida ishtirok etishiga ko‘maklashadilar.

7.3. Tomonlar sport muassasalari, xususan, tegishli nazorat qiluvchi vazirliklar va Olimpiya qo‘mitalari o‘rtasidagi aloqalar orqali turli sport turlarini rivojlantirish va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydi.

7.4. Tomonlar UNESCOning 2005 yildagi Sportda dopingga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasi qoidalariga rioya qilish majburiyatini oladilar.

8. TURIZM

8.1. Tomonlar bir Tomon davlati fuqarolarini boshqa Tomon davlati xalqlarining diqqatga sazovor joylari, tabiiy, tarixiy, badiiy va madaniy merosi va madaniy an’analari bilan tanishtirish maqsadida turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirishni rag’batlantiradilar.

8.2. Sayyohlik oqimini ko‘paytirish maqsadida Tomonlar davlatlarning turizm ma’muriyatlari o‘rtasida yaqin hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish niyat qiladilar.

8.3. Tomonlar turizm sohasi vakillarining har ikki davlat hududlarida tashkil etiladigan tadbirlarda ishtirok etishiga ko‘maklashadilar.

9. INSON HUQUQLARI

9.1. Tomonlar madaniyat va inson huquqlari bo‘yicha ta’lim sohasidagi faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydilar.

Tomonlar quyidagi maqsadda yordam beradilar:

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi va Vazirlar Kengashi Raisi, Italiyaning Teng imkoniyatlar departamenti o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish;

fuqarolik jamiyati institutlari bilan ochiq muloqotni davom ettirish maqsadida doimiy maslahat institutlari faoliyati doirasida Italiya tajribasini o‘rganish;

odam savdosiga, ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish shakllarini o‘rganish sohasida, shuningdek, inson huquqlari mavzusida madaniy ta’lim sohasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

qamoqda saqlash joylarining mustaqil monitoring tizimini yaratish bo‘yicha Italiya tajribasini o‘rganish;

O‘zbekistonda inson huquqlari bo‘yicha tadbirlarga italiyalik ekspertlarni taklif etish va Milliy markazning xalq diplomatiyasini boyitish;

jinoyatchilik, terrorizm va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash kontekstida inson huquqlarini ta’minlash kafolatlari bo‘yicha Italiya qonunchiligini o‘rganishga ko‘maklashish;

inson huquqlari bo‘yicha xalqaro hujjatlar qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha Italiya tajribasini o‘rganish.

9.2. Tomonlar, shuningdek, mazkur Dasturning barcha bandlari bo‘yicha erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglikni mustahkamlash, ayollar iste’dodini

oshirish va rag‘batlantirishga qaratilgan ta’lim va madaniyat sohasidagi tashabbuslarni hamda ular tomonidan amalga oshirilayotgan madaniy loyihalarni ilgari suradi.

Italiya Tomoni bu sohada aloqalarni o‘rnatishga tayyorligini bildiradi.

10. YAKUNIY QOIDALAR

10.1. Mazkur Dastur diplomatik kanallar orqali boshqa turdagi tashabbuslarni muvofiqlashtirish imkoniyatini istisno etmaydi.

10.2. Tomonlar mazkur Dasturda qayd etilgan barcha tashabbuslar har ikki davlatning tegishli yillik byudjetlarida belgilangan mablag‘lar mavjudligi doirasida amalga oshirilishiga kelishib oldilar.

10.3. Mazkur Dastur Tomonlar davlatlarining milliy qonunchiligi va xalqaro majburiyatlariga muvofiq, shuningdek, Italiyaga nisbatan uning Yevropa Ittifoqiga a’zoligidan kelib chiqadigan majburiyatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

10.4 Tomonlar mazkur Dasturda ko‘zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun almashadigan shaxsga doir ma’lumotlarning maxfiyligini kafolatlaydilar, shaxsga doir ma’lumotlar egasining yozma roziligisiz ularni uchinchi shaxslarga bermaydilar va har qanday holatda ularni kelishilgan maqsadlarga mos kelmaydigan tarzda foydalanmaydilar.

10.5 Ilova mazkur Dasturga qo‘shimcha hisoblanadi.

10.6 Mazkur Dastur qoidalarini talqin qilish yoki qo‘llashda kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar ularni muzokaralar va maslahatlashuvlar orqali hal qiladilar.

10.7 Mazkur Dastur 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi va keyingisi imzolangunga qadar, lekin 2026-yil 31-dekabrdan kechiktirmay amal qiladi.

Mazkur Dastur 2023-yil 8 iyun kuni Rim shahrida ikki asl nusxada, har bir Tomon uchun bittadan imzolandi. Har bir nusxa italyan va o‘zbek tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega.

Italiya Respublikasi
Hukumati nomidan

O‘zbekiston Respublikasi
Hukumati nomidan

Italiya Respublikasi Hukumati bilan
O‘zbekiston Respublikasi Hukumati
o‘rtasida 2024-2026 yillarga
mo‘ljallangan madaniy hamkorlik
Dasturiga ilova

1. TASHRIFLAR ALMASHISH

Mazkur Dasturning 1.1.2., 5.1.2., 5.2.1-bandlarida nazarda tutilgan tashriflar quyidagi tartibda tashkil etiladi.

A. Yuboruvchi Tomon o‘z vakillari jo‘nab ketgan kundan boshlab uch oy mobaynida diplomatik kanallar orqali qabul qiluvchi Tomonni xabardor qiladi. Bunday holda, yuboruvchi Tomon quyidagi ma’lumotlarni ilova qiladi:

- nomzodlar haqida umumiy ma’lumotlar, ularning rezyumelari va chet tillarini bilishlarini tasdiqlovchi hujjatlar;
- Italiya Tomoni nomzodlarining fuqaroligi italyan yoki Yevropa Ittifoqi davlatlaridan biri bo‘lishi va shunga mos ravishda O‘zbekiston Tomonidan nomzodlar uchun O‘zbekiston fuqaroligi bo‘lishi kerak;
- mumkin bo‘lgan konferensiyalar nomi, mezbon professor yoki universitetlarning tegishli kafedrasi/fakulteti, shuningdek, boshqa ta’lim muassasalari nomi ko‘rsatilgan tashrif dasturi;
- tashrif sanalari va davomiyligi.

B. Qabul qiluvchi tomon tashrifni qabul qilish niyatini diplomatik kanallar orqali belgilangan jo‘nab ketish sanasidan bir oy oldin tasdiqlashi shart.

C. Qabul qiluvchi Tomon o‘z hududida poytaxtdan tashrif buyuriladigan joyga ko‘chish va uchish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z zimmasiga oladi.

Faqat Italiyadan O‘zbekistonga tashrif buyuradigan oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari uchun (1.1.2. band) Italiya tomoni mamlakat ichida, poytaxtdan tashrif buyuradigan joyga va qaytib kelish bilan bog‘liq barcha mumkin bo‘lgan xarajatlarni o‘z zimmasiga oladi.

D. Italiya Tomoni O‘zbekistonlik o‘qituvchilarga (1.1.2. band) barcha xarajatlarni hisobga olgan holda dastlabki 6 kun uchun 120 evro, tashrif uchun ko‘zda tutilgan 8 kundan 2 kun uchun 93 evro miqdorida kunlik to‘lovni taklif qiladi. Italiya tomoni O‘zbekistondan kelgan mutaxassislarga (5.1.2. va 5.2.1. bandlar) barcha xarajatlarni hisobga olgan holda 93 yevro miqdoridagi kunlik to‘lovni taklif qiladi. O‘zbekiston Tomoni Italiyadan kelgan mehmonlarga turar joy, ovqatlanish va transport xarajatlarini taklif etadi. Aniq miqdorlar ikki davlat hamkor tashkilotlari o‘rtasida muhokama qilinadi.

E. Tashrif tugaganidan keyin bir oy muddatda almashinuvda ishtirok etuvchi o‘qituvchilar (1.1.2. band) tashrif davomida o‘tkazilgan tadqiqot

to‘g‘risidagi hisobotni tashrif amalga oshirilgan davlatning diplomatik vakolatxonasiga taqdim etadilar.

2. O‘QUV GRANTLARI

2.1-bandda ko‘zda tutilgan o‘quv grantlari quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

A. O‘quv grantini olish imkoniyati uchun tanlov e’lon qilinganda nomzodlar taqdim etishi kerak bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati taqdim etiladi;

B. Italiya Tomoni O‘zbekistonlik grant oluvchilarga quyidagilar ajratadi:

- 2.1-bandda ko‘rsatilgan shartlarga qarab oylik to‘lov; o‘quv granti muddati davomida kasallik va baxtsiz hodisalardan tibbiy sug‘urta, ilgari mavjud bo‘lgan ruhiy va jismoniy kasalliklar, shuningdek tish davolash xarajatlari bundan mustasno;
- universitet to‘lovlarini to'lashdan qisman ozod qilish, agar u tegishli masala bo‘yicha o‘zining mustaqilligi doirasida universitet tomonidan nazarda tutilgan bo‘lsa.

C. O‘zbekiston Tomoni o‘quv kurslarini o‘tkazish uchun malakali o‘qituvchilarni jalb qiladi, kutubxonadan foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi, o‘quv-uslubiy yordam ko‘rsatishda va italiyalik stajyorlarning ilmiy seminarlar, konferensiyalar va boshqalarda ishtirok etishiga yordam beradi.

Kurs uchun hech qanday to‘lov olinmaydi. Agar kerak bo‘lsa, O‘zbekiston Tomoni talabalar turar joyidan ham bepul joy ajratishi mumkin.

D. Nomzodlarni - o‘quv grantlari g‘oliblarini tanlash har bir davlatda maxsus tayinlangan Komissiya tomonidan amalga oshiriladi;

E. Komissiya tarkibiga grant taklif etayotgan davlatning diplomatik vakolatxonasi vakili kiradi;

F. Grant egalari grant taklif qilayotgan davlatning diplomatik vakolatxonasidan rasmiy xabar olinmaguncha mezbon davlatga sayohat qila olmaydi.